

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFEMIKA HAQIDA

*Andijon davlat pedagogika instituti
2-kurs talabasi
Ataxanova Malika*

Annotation. *Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligi morfemikaning shakllanishi va taraqqiyoti hamda hozirgi kunda qo'llanish masalalarida fikr yuritiladi. Hozirgi tilshunoslik asarlarida tushuncha mohiyatini to'liq ifodalayotganiga baho beriladi.*

Kalit so'zlar: *o'zak, qo'shimcha, asos, negiz morfema affiks morfema lug'aviy negiz, morfologik negiz, sintaktik negiz va boshqalar*

Аннотация. В данной статье рассматривается становление и развитие морфемики в узбекском языкознании и их современное использование. Современные лингвистические произведения оцениваются на предмет полного выражения сущности понятия.

Ключевые слова: корень, суффиксная, основа, морфемы аффикс, морфема лексическая, основа, синтаксическая основа и т. д.

Annotation. *This article discusses the formation and development of morphemics in Uzbek linguistics and their current use. It fully expresses the essence of the concept in the current works of linguistics.*

Key words: *Root, suffix, base, morpheme lexical base, morphological base, syntactic base etc.*

Yurtimizda ta'lif sohasida olib borilayotgan ezgu va samarali ishlardan yana biri bu ta'lif sohasini huquqiy jihatdan ta'minlash ko'rsatib berish bu tizimda 2020 yil 19-mayda qabul qilingan "Ta'lif to'g'risida" gi qonun ko'rsatib berdi. Qonunning asosiy maqsadi yurtimizda zamon talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlash hamda ularni bilim saviyasini jahon tajribasiga tayangan holda yuksaltirish bo'yicha chora -tadbirlar belgilab berilgani bejizga emas. Biz yosh avlodlarga keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Morfemika-tilshunoslikning alohida va mustaqil sohasi. Morfemika so'zning ma'noli qismlari haqidagi ta'lifotdir. So'zlarning grammatik tarkibi o'zak va turli morfemalardan tashkil topib gapda so'zlar turli grammatik shakllarda ham, o'zgarmagan holda ham qo'llaniladi. So'zning o'zgarmagan shakli asosiy yani, lug'aviy ma'noli qismidir. Dastlab morfemika tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajratilmagan Bu sohaga o'tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin e'tibor berila boshlagan.Unga qadar darslik va qo'llanmalarda morfemikaga oid tushunchalar "So'z tarkibi" nomi bilan morfologiya mundarijasida berilgan. "Morfema" deb qo'llanilmagan[1] "o'zak", "qo'shimcha", "asos", "negiz"[2] haqidagi ma'lumotlar «So'z tarkibi mavzusining asosiy mazmun mohiyatini tashkil etgan.

Morfemika til fanining bo'limlaridan biri sifatida morfemalarning turlarini, ularning har biriga lisoniy xususiyatlarini o'rGANADI. Masalan, uyimizning so'zidagi uy so'zining ma'noli qismi -imiz- egalik ma'nosini,-ning kelishik, ma'nosini ifodalagan.

Morfemika so‘z tarkibining ana shunday qismlarini o‘rganadi. Morfemalarni ulardan kichik yana boshqa ma’noli qismlarga ajratib bo‘lmaydi. Agar so‘z tuzilishida qo‘sishimcha ishtirok etsa, u turli Grammatik ma’nolarni ifodalaydi. So‘zning ma’noli qismi ikki tarkibidan; so‘z va qo‘sishimchalaridan tashkil topadi. So‘zning o‘zi ham muayyan ma’noli qismdir. Bu qism so‘zning, boshqa ma’noli qismlariga bo‘linmaydigan, ushbu so‘z asosida yuzaga keladigan turli shakllarning hosil bo‘lishi uchun asos bo‘ladigan qismidir.

Morfema –grekcha «shakl» demakdir. Ya’ni so‘zning turli ma’noli, shakllari morfema hisoblanadi. Biroq so‘z shakllari ma’no va vazifa jihatidan farqlanadi. Shunga ko‘ra morfemalar ikki xil 1 O‘zak morfema, 2 affiksal morfema.

O‘zak morfema so‘zning asl lug‘aviy ma’nosini ifodolovchi qismi, shuning uchun morfemaning bu turi asosiy morfema deb yuritiladi. O‘zak morfemalar so‘z yasalishi uchun ham ; bilimdon, do‘stlik, ; shakl yasalishi uchun ham; bilimdonroq do‘stliklar, so‘z o‘zgarish uchun ham; bilimdondan, do‘stlikdan asos bo‘ladi.

So‘zning lug‘ aviy ma’ nosi bilan bog‘liq bo‘lgan turli grammatik ma’ nolar qo‘sadigan qism affiksal morfema deyiladi. Affiksal morfemalar mustaqil holda ma’no ifodalaydi. So‘zlarning morfemalarga bo‘linishi asosida lug‘aviy va grammatik ma’nolarning ifodalanishi yotadi.

O‘zak va affiksal morfemalar boshqa turli xildagi qo‘sishimchalarni qo‘shilishi uchun asos bo‘ladi. Masalan kitobxonlarga so‘zidagi-xon qo‘sishimchasi uchun kitob asos bo‘lsa,-lar qo‘sishimchasi uchun kitobxon so‘zi, ya’ni bir o‘zak, bir affiksal morfema asos bo‘lgan.

So‘zlarning qo‘sishimcha oladigan qisminegiz deyiladi. Masalan bilimdonlik so‘zidagi bil o‘zak , bilim negiz bo‘ladi. Chunki shu qism-don qo‘sishimchasin qo‘llanilishiga asos bo‘ladi.-lik qo‘sishimchasi uchun bilimdon so‘zi negizdir. Negiz qaysi qo‘sishimchalar bilan yasalishiga ko‘ra uch xil; lug‘aviy negiz, morfologik negiz, sintaktik negizga bo‘linadi.

Xulosa. Yurtimizdagи bugungi kundagi islohotlar o‘zgarishlar tufayli xalqimiz juda ham mammun bo‘lmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar natijasida kadrlarlar hech jabhada jahon mamlakatlari kadrlaridan ortda qolayotganligini yo‘q. Bundan ko‘rinib turibdiki, yurtimizda ta’lim jarayonlari, ushbu sohadagi sifat yaxshi darajada rivojlanmoqda. Biz yoshlar ham o‘z imkoniyatlarimizni ishga solib hech ham bilim olishdan, shu bilan birga likda izlanishdan to‘xtab qolmasligimiz kerak. Zeroki biz bu buyuk davlatning ertasi, kelajagining bunyodkorlarimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Arabboyeva M Ona tili darslari orqali o‘quvchilarining ijtimoiy emotSIONAL-fuqorolik kompetentsiyalarini rivojlantirish. Замонавий таълим/ современное образование, 2022, 12 сон.

2. Arabboyeva M. Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muommo sifatida. Scientific Bulletin of NamSU –Научный вестник НамГУ NamDU ilmiy axborotnomasi-2023-yil 7-son.

3.Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol javob to‘plami. T «Navro‘z»,2.